

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING HAYOTI VA MA'NAVIY MEROSI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali AKT 23.02-guruh talabasi

Turdibekova Marjona O'tkirbek qizi

Annontatsiya:

Mazkur maqolada buyuk allomamiz, Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariyning ta'lim tarbiya to'g'risidagi asarlari, fikr va qarashlarining butun jaxonda tutgan o'rni va pedagogic fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, shuningdek bugungi kun amaliyotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: alloma, ka'ba, namiydoniy, xalq, islom, hadis, qur'on, ta'kid, qanoat, muholif, aqida.

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o'z zamonasidan o'zib ketgan daholar yurti bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qshchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy nomlarining o'zi bir kitob bo'ladi. Biri kalom ilmi ustoz, biri falak toqiga narvon qo'ygan zabardast olim, boshqasi amaliy tibbiyot otasi, biri kalom ilmi durdonasi, yana biri muhaddislar sultoni.¹

Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimizdan biri bu shubhasiz Mahmud Zamaxshariydir. Bu zotning ilm yo'lida chekkan riyozatlari, hadis ilmining rivojiga qo'shgan hissalar hamda yaratgan asarlari butun dunyoda tillardan-tillarga doston bo'lgan. Mahmud Zamaxshariydek zot haqida ko'p gapirish mumkin, ko'p gapiirilgan ham, bundan keyin ham gapiriladi. Zero o'rta asrlar sharoitida bir millionga yaqin hadisni dunyo bo'ylab tarqalib ketgan minglab roviylardan birma-bir yozib olib, tekshirib, tasniflab kitoblar ta'lif etish bugungi texnika va keng imkoniyatlar asrida ham hech kimga nasib etmayotgan buyuk xizmat va sharafdir.

Mahmud Zamaxshariyning tarbiyaga oid asarlarida umuminsoniy qadriyatlarining o'ziga xos talqini va bu talqinning xususiyatlari masalasi tahlil qilinadi. Allomaning asarlaridagi irfon va islom ma'rifati bilan bog'liq jihatlarning umuminsoniy

¹ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=502>



qadriyatlar bilan bogʻliq aloqadorligi koʻrib chiqiladi. Bundan tashqari maqolada muallifning masalaga doir shaxsiy nuqtai nazari ham keltirib oʻtiladi.²

Zamaxshariy ilm-fanning turli soxalari bilan qiziqib, o'z tengqurlari orasida zo'r qobiliyati va kata iste'dodini namoyon qila boshlaydi. Madrasada o'qiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar majmuasini to'liq egallaydi. Shu bilan bir qatorda o'sha davrda ilm ahllari orasida muhim hisoblangan hattotlik san'ati siru asrorlarini ham mukammal o'zlashtirib oladi. Maxmud Zamaxshariy bizga ulkan ilmiy meros qoldirgan. Hozirga qadar olim qalamiga mansub 66 ta asar borligi aniqlangan.

Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy hijriy 467-yil 27-rajab chorshanba kuni, milodiy 1075-yil 19-martda Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Mahmud az-Zamaxshariyning otasi uncha badavlat bo'lmasa-da, o'z davrining savodli, taqvador, diyonatli kishisi bo'lgan va Zamaxshardagi bir masjidda imomlik qilgan edi. U xulqi-atvori yahshi, shirinsuxan va g'oyatda muruvvatli kishi bo'lib bu fazilatlari bilan el orasida kata obro'-e'tibor topgan. Bolg'usi olimning onasi ham taqvador, diyonatli ayol bo'lgani ma'lum.

Az-Zamaxshariy dastlabki bilimlarini o'z otasi Umar ibn Ahmaddan oldi, bir oyog'i cho'loq bo'lib qolgach, otasi tikuvchilik hunarini egallasin deb uni tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ldi. Ammo, yoshligidan ilmga intilgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni iltimos qiladi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoqni sezgan ota uning ra'yiga yurdi. Ana shu paytdan yosh tolibi ilm fanining turli sohalari bilan qiziqib, ularni noyob ist'edod va ijti hod bilan egallay boshlaydi shu bilan bir qatorda o'sha davrda ilm ahllari orasida muhim hisoblangan hattoblik san'ati siruv asrorlarini ham mukammal o'zlashtiradi. Arab tarixchisi Ibn Hallikonning (1211-1288-yil) yozishicha: "talabalik yoshiga (12 yoshlarga) yetgach, o'z bilimini oshirish va har tomonlama mukammal bilimga ega bo'lish maqsadida u Buxoro shahriga yo'l oladi. Chunki, Buxoro o'sha paytda, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibining iborasi bilan aytganda "Somoniy lar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basini va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan yer yuzi adiblari to'plangan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan joy edi".³

² <https://religions.uz/uz/news/detail?id=502>

³ Buyuk allomalar. X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.



Olimning shundan keyingi hayoti xorijiy o'lkalarda kechadi. Dastlab Xurosonga yo'l oladi. U yerdagi davlat arboblari bilan bog'lanib, ularga madhiyalar bag'ishlaydi. Shulardan biri Tojud-Davlaning noibi Mujirud-Davla Abul-Fath Alibin al-Xusayin al-Ardistoniy edi. Az-Zamaxshariy gramatikaga oid "Sharh abiyat Sibavayx" va "al-Unmuzaj" nomli asarlarini unga bag'ishlaydi. So'ngra yana safarga o'tlanib, saljuqiylar davlatining poytaxti Isfaxonga keladi. Bu davlat sultoni Muhammad ibn Abul-Fath Malikshoh adolatligi go'zal xulq-atvori va jasurligi bilan mashhur edi. Az-Zamaxshariy sultonning hayrli ishlariga bag'ishlab madhiyalar yozadi. O'zining "Muqaddamatul-adab" asarini esa Xorazmshox Alouddavla Abul-Muzaffar Otsizning iltimosiga binoan yozadi va ilm ahillari va adiblarga nisbatan g'amxo'rlikini alohida ta'kidlaydi.

1118-yilda Az-Zamaxshariy og'ir bir dardga chalinadi va ko'p azob-uqubatlardan keyin shifo topgach, endigi umrini faqat ilm-fanga, shogirdlar yetishtirishga baxshiyda etib, asarlar yaratishga astoydil azmu qaror qiladi. To'la sog'aygandan so'ng, yana safarga chiqib Bag'dodga to'xtaydi. Bu shahar olimlaridan sabog' olib, qizg'in munozaralarda qatnashadi.

Bir muddat Bag'dodda yashagach Makkaga boradi. Makka ahli, uning amiri Abul-Xasan Ali ibn Xamza ash-Sharif al-Xasaniy ibn Vahhos az-Zamaxshariyni yahshi kutib oladi. Makkada ikki yil umr kechirgan olim vataniga qaytadi-da, bir necha yil Xorazmda yashab ijod bilan mashg'ul bo'ladi. So'ngra yana ilm talabi bilan safar ixtiyor etadi. Damashq ahli donishlaridan bahra oladi, makkai mukarramada uch yil turib bilim va ijodiy malakasini takomilga yetkazadi. Aytmoq zarurki, Ibn Vaqqos bu navbat ham az-Zamaxshariyni iliq qarshi olib, unga g'oyatda izzat-ikrom ko'rsatadi. Amirning samimiy yordamidan ilhomlangan az-Zamaxshariy o'zining Qur'oni karim tavsiriga bag'ishlangan mashhur "al-Kashshof" ini yozib tugatadi. So'ngra Xorazmga qaytib kelib, ijod bilan mashg'ul bo'ladi va 583-yilning arafa kechasi (milodiy 11-44 yil) Jurjon (hozirgi ko'hna Urganchda) vafot etadi. Mahmud az-Zamaxshariy ilm istab Xuroson, Shom, Hijoz kabi shaharlarda bo'lganida o'sha davrning mashhur olimlaridan saboq oldi, ular bilan ilmiy ijodiy munozaralarda ishtirok etdi. Do'stona, samarali hamkorlik ishlarini bog'ladi. Allomaning ko'plab shogirdlari bo'lgan. Ayniqsa, Makkada yashagan paytlarida islom olamining turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilar ibodat bilan birga zoti komildan ilm olar edilar. Uning ustozlari hamda shogirdlari turli millatlarga mansub bo'lgan. Ilm yo'lida az-Zamaxshariy tom ma'noda haqiqiy



baynalmilallik fazilatlarini namoyon qilgan bag'rikeng insondir. Chunonchi bu fozil kishidan Zamaxsharda, Xorazm, Tabariston, Abivarda, Halab, Samarqand va boshqa bevosita saboq olgan shogirtlaridan tashqari, yetuk asarlarini mutolaa qilib ilm o'rganganlari tufayli o'zini az-Zamaxshariyning shogirdiman deb hisoblaganlar, ya'ni, barini g'oyibona tutganlar islom olamida bisyor edi.⁴

Az-Zamaxshariy Qur'oni karim tili – arab tiliga yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan qaradi. Arablarning hayoti va urf-odatlarini, turli lavhalarini yillar davomida chuqur o'rgandi. Bu harakatlar arab tilining grammatikasi, leksikasi, umuman arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarning yaratilishiga olib keladi. Uning shu yo'nilishda yozilgan “Muqaddamatul-adab”, “Al-Mufassal”, “Asosul-balog'a” kabi yirik asarlarining jumlai jahonga dong'i ketgan. Arablarning o'zi ham “Agar xorazmlik shu ko'sa, cho'loq bo'lmaganda, arablar o'z tillarini bilmas edilar!”, deb allomaga yuksak baho berganlarki, bu e'tirofning o'zi har qanday ta'rifdan baland turadi. Az-Zamaxshariy ijodi bilan tanishar ekanmiz, yana bir ibratli holning bo'lamiz. U o'zidan oldin yashagan qator adib va olimlarning ilmiy faoliyatini, ijodini qunt bilan o'rganadi, ularning uslub va mahoratidan unumli foydalangan, ayniqsa, yirik arab faylasufi va adiblari al-Johiz (869 yilda vafot etgan) va al-Xariri (1054-1122 yillar)ning ijodlariga kata baho bergan edi.

Alloma az-Zamaxshariy o'z umrining aksar qismini xorijiy yurtlarda, musofirlikda o'tkazgani bilan, o'z yurti Zamaxshar, o'z ona vatani Xorazmni juda qattiq sevadi, haqiqiy vatanparvarlik hissiyotlarini namoyon qilgani holda, unga madhiyalar bag'ishlab, ”Xorazm zaminida shunchalik ko'p fazilatlar mavjudki, dunyoning bowqa biror mamlakatida ham unaqasini ko'rmadim”, deb o'z vatani Xorazmni iftixor bilan ta'riflaydi. Manbalar ustoz tilshunosning tabiati, fe'l-atvori borasida shunday ma'lumot berdilar. Alloma hazil-mutoyibaga moyil, hozirjavob va o'rni kelsa u aybini e'tirof etib tan oladigan irodasi kuchli inson bo'lgan. Az-Zamaxshariyga zamondosh olim, qator asarlar muallifi Abul-Fazl al-Maydoniy (vafoti 1124 yil) “Al-Hodiy li shodiy” (Dastlabki ilm oluvchilarga qo'llanma) nomli asar yozadi.⁵ Bu kitob mazmun mohiyati jihatidan g'oyat keng qamrovli bo'lib, mukammal bilim oluvchilar uchun asarning nomi az-

⁴ Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir: Z.Islomov.-T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.-80b.

⁵ Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir: Z.Islomov.-T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.-80b.



Zamaxshariyga yoqmaydi. Shu sababli, u Maydoniyga kitobni nomuvofiq nomlaganini aytib tanbeh beradi va o'z asarlaridan birida "maydoniy" so'zining oldiga "na" (ya'ni "nun") harfini qo'yib uni forscha "namiydoniy" (hech narsani tushunmaydigan, bilmaydigan) atab, mutoyiba qiladi.

Buyuk alloma az-Zamaxshariyning boy ilmiy va adabiy merosi Sharqda ham G'arbda ham azaldan qadrlangan, o'rganilgan, aksar asarlari bir necha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Buyuk mutafakkir bizga boy va ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari mazmun jihatidan ilm-fanning ko'pgina soxalarini qamrab oladi. Olimlarning asarlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- a) Diniy ilmlar
- b) Tafsirshunoslik;
- c) Lug'atshunoslik;
- d) Grammatika;
- e) Aruz;
- f) Adabiyot;
- g) Mantiq;
- h) Geografiya.

Az-Zamaxshariy asarlari nafaqat o'z davrida, balki to bizning davrimizgacha ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmaganligini olimlar e'tirof etishadi. Maxmud az-Zamaxshariy musulmon dunyosida "Ustozul-arab val-ajam" ("Arab va arab bo'lmagan xalqlar ustoz"), "Ka'batul-udabo" (Adiblar ka'basi), kabi sharaflil nomlarga sazovor bo'lgan. Bu nomlar olim ilmiy merosining ilmiy-amaliy ahamiyatidan kelib chiqib berilgan. Az-Zamaxshariy ilmiy merosi uzoq muddat yurtimizda o'rganilmay kelinadi, lekin arab, sharq, g'arb mamlakatlarida ularni o'rganish to'xtatilgani yo'q. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ushbu sohada ham sezilarli o'zgarish ro'y berdi, Jumladan, allomaning mashxur "Muqaddamatul-adab", "Unmuzaj", "Al-foyiq fil-g'aribiy-xadis" kabi asarlari o'rganildi va ular yuzasidan ayrim tadqiqotlar yaratildi.⁶

Biroq, az-Zamaxshariy ilmiy merosi hali ochilmagan ko'rik. Uning asarlari ayniqsa mustaqillik yillarida muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, ular yoshlarni iymon-e'tiqotli, ma'naviy yetuk, ilimli inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Az-

⁶ Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). *European Scholar Journal*, 2(11), 45-48.



Zamaxshariy o'zining mashhur "Atvoq az-zahab fil-mavoiz val-xutab" – "O'git va nasixatlarning oltin shodalari" nomli asarida shunday yozadi: "Ey farzand! Avvalo sen ilmli, odobli, so'ngra taqvador bo'lgin. Ilm senga ota, taqvadorlik esa ona bo'lsin. O'zingni doimo mana shu ikki mehribon bag'rida tutgin. Shundagina Tangri taolo seni doimo o'zi asragay".

Maxmud az-Zamaxshariy ilmiy merosida "Al-mufassal", "Al-Kashshof", "Muqaddamatul-adab", "Asosul-balog'a", "Maqomot" kabi o'lmas asarlari muhim o'rin egallaydi. Ular jahon tafakkuri, ma'naviyati xazinasiga durdona asarlar yordamida kiritilganidir.

Alloma keng qamrovli tafakkur sohibi bo'lgan. Fikrimizni Xorazmshoh Alouddavla Otsiz unga uzining boy, ma'mur kutubxonasi uchun kitob yozib berishni topshirgani tasdiqlashi mumkin. "Muqaddamatul-adab" deb nomlangan bu asar fan, madaniyat, san'at, ijtimoiy hayotning turli soxalari bo'yicha ma'lumot beruvchi qomusiy manbadir. Eng e'tiborlisi shundaki, ma'naviy merosimiz tarixida shunchalar shuhrat topib, bir necha tillarga tarjima qilingan bu kabi asar uchramaydi. "Muqaddamatul-adab" ning arabcha-forscha, arabcha-turkiy, arabcha-xorazmiycha, arabcha-forscha-turkiy, arabcha-forscha-turkiy mug'uliy tillardagi so'zlik kiritilgan qo'lyozmalar mavjud.⁷

Olimning "Al-Kashshof" nomi bilan tanilgan mashhur tafsiri o'zining filologik tahlili jihatidan boshqa tafsirlardan farqlanadi. Musolmon dunyosida dunyosida mazkur tafsir hozirga qadar asosiy manba sifatida o'qitib kelinmoqda.

Olim asarlarini chuqur va jiddiy tadqiq etish, o'rganish, ular bilan elimizni yaqindan tanishtirish bugungi mustaqillik davrining ma'naviyat sohasidagi eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Insonning ilm-ma'rifatga intilishi qadimdan ko'plab xalqlar tomonidan e'tirof qilib kelinayotgan umuminsoniy g'oyalardan biridir. Alloma ham bu xususda to'xtalib, "yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish korradigan bo'l, yoki ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi bo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan" deydi. Ya'ni insonning najoti ilm bilan bo'lsa uni falokati jaholatga yuz burish bilan ekanligini aytadi. Yana, u "Ilmli bo'lish bir baland toqqa chiqish kabi ko'p mashaqqatlidir, lekin undan tushish osondir, johilligu nodonlik bulog'i chuqur chashma misoli bo'lsada, biroq, u ko'p qiyinchilig-u azoblarga giriftor qiladi" deydi. Zamaxshariyning hikmatlarida insonga xos ezgu xislatlarni tizimli shakllantirish g'oyasi ham yaqqol namoyon bo'lib turadi. Ya'ni, "Qanoat eng xos narsang bo'lsin.

⁷ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=502>



Odamlardan tama qilishni kamaytir. Doimo Allohning fazli bilan bo'l". Bunda allomaning insonga xos bo'lgan eng muhim omillardan biri bu qanoat ekanligi va bu barkamol insonni bir belgisi ham ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Insoniyat ming yillardirki ezgulik, ezgulikka intilish, konstruktiv g'oyalarni ustunligini tan olib kelmoqda. Alloma ham shu ma'noda "Avval qilib kelgan xayrligu ezguliklaringizga keyin ham ezgulik qo'shavering, chunonchi, qushning qanotidagi kichik patlar ham katta patlariga madadkoridir" deydi. Ya'ni inson faqat ezgulik bilan kamol topishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi. Yana Zamaxshariy yaxshi xulqlar haqida to'xtalib, Ular shunday bir "Ne'matlar uzoqlashganda ular shabada bo'lb ne'matlarni sen tomon haydaydi, chorlaydi. Azobu uqubatlar to'p-to'p bo'lib yopirilganda, ularni sendan uzoqqa quvadi, haydaydi". "Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir" deydi. Allomaning ta'kidlashicha, inson doimo ilm olishi, har qanday ishni aql, idrok, faxmu farosat, shariatga, payg'ambar alayxissalom ta'limotlariga muvofiq amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi. U jamiyatdagi riyokorlik, poraxo'rlik, isrofgarchilik, fisqu-fasod, baxillik kabi barcha salbiy illatlarni qoralaydi va ularni doimo yo'qotish, tuzatish zarurligini uqtiradi. Allomamizning mehnatsevarligi, uning ilimga bo'lgan qiziqishlari oqibatida musulmon olamida mashhur bo'lib ketadi.⁸

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Mahmud az-Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asarida tarbiyaga oid eng odilona fikr asoslari keltirilgan. Bu asar orqali bugungi globallashuv sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda milliy ruhni o'zida aks etgan darslik, tarbiyaviy o'quv qo'llanmalar yaratishda dasturulamal vazifasini bajaradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mahmud az-Zamaxshariy fikrlarida kishining tarbiyasiga oid muhim fikrlar sifatida ko'tarilgan bu masala bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Biz tarbiyashunos olim Mahmud az-Zamaxshariy "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asaridagi axloqiy qarashlarni, ta'lim tarbiya jarayonida talablarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda qo'llasak juda yaxshi samara beradi.

⁸ arxiv.uz



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buyuk allomalar. X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.
2. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
3. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
4. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
8. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
9. arxiv.uz
10. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=502>

